

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2023 yil  
yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining  
huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati  
to'g'risidagi**

**A X B O R O T I**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev boshchiligida mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va aholining muammolarini hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, 2023 yil davomida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

***I. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi***

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi **PF-27-son** Farmoni bilan tasdiqlangan **"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"**da amalga oshirishga oid Davlat dasturi bilan Ichki ishlar vazirligi asosiy ijrochisi etib belgilangan barcha vazifalar o'z vaqtida bajarildi.

*Bugungi kunga qadar 3 ta Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.*

*1 ta qaror loyihasi Prezident Administratsiyasi tomonidan ko'rib chiqilmoqda.*

Xususan, Ichki ishlar vazirligida tayyorlangan loyihalar asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan quyidagi **yangi mexanizmlar** yaratildi:

– **ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga** (nogironligi bo'lgan shaxslar, og'ir bemorlar, keksalar va boshqalar) joyiga borgan holda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida ayrim davlat xizmatlarini bepul ko'rsatish tartibi joriy etildi;

*Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 31 iyuldagi 321-son "Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, shuningdek, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.*

– **Toshkent** va **Nukus** shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlar markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligi 70 kilometr soatdan 60 kilometrgacha tushirildi;

*Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 3 apreldagi 140-son "Yo'l harakati qoidalariga avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.*

– shaxsning huquqlarini cheklash bo'yicha qo'llanilgan protsessual majburlov choralarini **Yagona elektron baza** orqali hisobga olish amaliyoti joriy etildi.

*"Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olishning yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2023 yil 31 avgustda 431-sonli Hukumat qarori qabul qilindi.*

Shuningdek, **jinoyatlarni tergov qilish** sohasida ichki ishlar organlarining

tashkiliy-boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha Prezident qarori loyihasi tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2023 yil 28 avgustda Vazirlar Mahkamasi orqali Prezident Administratsiyasiga kiritildi.*

## ***II. Aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini o'rganish va hal etish hamda fuqarolarga qulayliklar yaratish borasidagi tadbirlar***

2023 yil **31 yanvardan** boshlab, Ichki ishlar vaziri boshchiligidagi **idoralararo ishchi guruhi** bevosita joylarga chiqqan holda **uch bosqichda** aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish borasida amalga oshirilgan ishlar ahvolini o'rgandi.

**Birinchi bosqichda** 2023 yil 31 yanvardan 27 martga qadar **7 ta** hudud, ya'ni **Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo** viloyatlari o'rganildi.

**Ikkinchi bosqichda** 2023 yil 29 maydan 24 iyungacha qadar **5 ta** hudud, ya'ni **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand** viloyatlari o'rganildi.

**Uchinchi bosqichda** 2023 yilning **18-21 iyunda Navoiy, 24-28 iyulda Buxoro** hamda **7-10 avgustda Samarqand** viloyatlari o'rganildi.

Bunda, ishchi guruh eng chekka qishloqlarga borib, joylarda sektor rahbarlarining mas'uliyatiga baho berish, tegishli idoralarning ish natijadorligini o'rganish va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash borasida o'rganishlarni amalga oshirdi.

Buning doirasida:

– kriminogen jihatidan og'ir **1 712 ta** mahallaga borib, **38 519 ta** jinoyatlarning sabablari muhokama qilindi;

– 2022 yil yakuni bilan "qizil" toifaga kiritilgan **3 054 ta** mahallaga huquq-tartibot idoralarning rahbarlari biriktirildi va har bir mahalla uchun "yo'l xarita"lari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi;

– **387 ta** "qizil" toifadagi mahallalarda **160 nafar** sektor rahbarlari va **1 935 nafar** mahalla vakillarini aholining muammolarini hal etish borasida yangi ish uslublarini o'rgatish bo'yicha **36 marotaba maxsus seminarlar** o'tkazildi;

– olisda joylashgan mahallalarda **2 214 ta** sayyor qabullar o'tkazildi, fuqarolarga **12 480 ta** ijtimoiy yordam ko'rsatildi, **3 712 nafar** ishsizlar doimiy ishga joylashtirildi, **913 nafari** kasb-hunar o'rganishga yuborildi;

– olis hududlarda **684 ta** yarmarka tashkil etilib, **3,4 ming tn** arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari etkazib berildi;

– **5 672 nafar** yoshlar, **4 324 nafar** ayollar bilan mahallalarda, ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda **1 370 marotaba** keng qamrovli profilaktik tadbirlar o'tkazildi;

– nizoli oilalarda mavjud **4 557 ta** maishiy muammolar bartaraf etildi, tazyiqqa uchragan **941 nafar** ayollarga “himoya orderi” berildi, farzandining tarbiyasiga e’tiborsiz bo’lgan **119 nafar ota-ona** ma’muriy javobgarlikka tortildi;

– **846 ta** jinoiy va **1 346 ta** ma’muriy holatlar aniqlanib, **87 ta** jinoyat fosh etildi, **191 nafar** qidiruvdagilar qo’lga olindi;

– **33,9 ga** erlarni sotish va **10,1 ga** erlarni o’zboshimchalik bilan egallash bilan bog’liq **74 ta** jinoyat ishlari qo’zg’atildi;

– **141,7 kg** giyohvandlik vositalari, **18 744 dona** psixotrop dorilar, **20,3 tn** neft mahsuloti, **110 dona** o’qotar ov qurollari, **1 371 dona** sovuq qurollar olindi.

Joylarda aniqlangan muammoli masalalar mahalliy hokimlik va huquq-tartibot idoralari ishtirokida muhokama qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan “yo’l xarita”lari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

### *III. Yirik ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlar*

**O’zbekiston Respublikasi Referendumi va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi** davomida **10 mingdan** ziyod ob’ektlarda **20 mlndan ortiq** fuqarolarning xavfsizligi ta’minlandi.

Mazkur tadbirlarga **33 523 nafar** huquq-tartibot idoralari xodimlari jalb etildi. Ularga xizmatda foydalanish uchun **13 613 ta** aloqa, **4 135 ta** avtotransport vositalari, **13 613 ta** metallodetektor hamda **231 bosh** xizmat itlari birlashtirildi.

Referendum va saylovni xavfsiz sharoitda o’tkazish maqsadida, respublika bo’yicha **barcha referendum va saylov uchastkalari binolari** birma-bir o’rganib chiqilib, xavfsizlik uchun zaruriy vosita va jihozlar bilan ta’minlandi.

**Navro’z bayrami 231 ta** ob’ektlarda **1 mln 164 mingdan** ortiq fuqarolar ishtirokida o’tkazilib, jamoat tartibi to’liq ta’minlandi.

*Bayram tadbirlari 185 ta maydonlar, istirohat bog’lari, xiyobon, amfiteatr va o’yingohlarda, 23 ta tashkilot va madaniyat saroylarida, 7 ta sport inshootlarida, 30 ta mahalla hududlari va ko’chalarda o’tkazildi.*

“**Ramazon hayiti**”ga bag’ishlangan **2 080 ta** taroveh namozlari vaqtida **2 119 ta** masjidlarda **25 mlndan ortiq** fuqarolar ishtirok etdi, shuningdek, “**Qurbon hayiti**” namozida **2,8 mln** fuqarolar ishtirok etdi.

2023 yil 16-18 may kunlari Samarqand shahrida o’tkazilgan **Evropa tiklanish va taraqqiyot banking 32-yillik anjumani** davomida ishtirokchilar va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**Mustaqillikning 32 yillik bayrami** tantanalari **220 ta ob’ektlarda 717 mingdan ortiq** fuqarolar ishtirokida o’tkazilib, noxush holatlar sodir etilmadi.

*Mazkur tadbirlarga 22 297 nafar huquq-tartibot idoralari xodimlari jalb etildi. Ularga xizmatda foydalanish uchun 6 900 ta aloqa, 1 658 ta avtotransport vositalari, 2 655 ta metallodetektor hamda 268 bosh xizmat itlari birlashtirildi.*

**“Yangi 2023 yil” bayrami** munosabati bilan 2023 yil **25** dekabrda 2024 yil **5** yanvargacha qadar **257 ta** ob’ektlarda **2 mlndan ortiq** fuqarolar ishtirokida **2 159 ta** bayram tadbirlari o’tkazildi.

Jumladan, **2023 yil 28-30 dekabrda** Qoraqalpog’iston, Toshkent shahri va viloyatlarda **“Prezident archasi” tadbirlari** o’tkazildi.

Yuqoridagi barcha ommaviy tadbirlarni o’tkazish davomida tezkor vaziyatni nazorat qilish, jamoat tartibini saqlash va xizmatga jalb etilgan kuch-vositalarni markazlashgan tartibda boshqarish uchun **Vazirlik markaziy apparatida tezkor shtab**, joylarda esa **ishchi guruhlar** faoliyati yo’lga qo’yildi.

Tadbirlar davomida jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida **“Xavfsiz hudud”**, **“Chegara tozalash”**, **“Qurol”** va **pirotexnikaning** noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo’yicha manzilli tezkor-profilaktik tadbirlari o’tkazildi.

#### ***IV. Davlat rahbari tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosi***

**O’zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023 yil 28 iyulda Farg’ona viloyatida o’tkazilgan Ichki ishlar vazirligi Hay’atining navbatdan tashqari kengaytirilgan majlisida** berilgan barcha topshiriqlarning ijrosi ta’minlandi.

Xususan, 2023 yil yakuni bilan respublikadagi **2 298 ta** “qizil” mahallalarga jami **1 912 nafar** ichki ishlar, **125 nafar** Milliy gvardiya, **261 nafar** prokuratura idoralari rahbar xodimlari hamda ushbu mahallalarning sektor rahbarlari nommanom biriktirildi.

Bundan tashqari, har bir tuman-shaharda bittadan eng og’ir mahalla ajratib olinib, hokimlarga biriktirildi.

Mas’ullar tomonidan joyiga borgan holda mahallada jinoyatchilikni jilovlash bo’yicha qo’shimcha kuch-vositalarni ajratish, har bir mahallani 2024 yil 1-choragi yakuniga qadar xavfsiz hududga aylantirish bo’yicha **“yo’l xarita”**lar ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

O’z navbatida, “qizil” toifadagi mahallalarda xizmat qilgan **171 nafar** yosh, etarli amaliy ish tajribasiga ega bo’lmagan profilaktika inspektorlari tajribali xodimlar bilan almashtirildi.

Vazirlik Akademiyasi professor-o’qituvchilari tomonidan respublika bo’yicha jami **11 672 nafar** “mahalla ettiligi” vakillari uchun mahallada xavfsiz muhitni yaratish yuzasidan seminar-mashg’ulot o’tkazildi.

Aholining ijtimoiy-maishiy muammolarini mahallaning o’zida hal etish bo’yicha **“ijtimoiy profilaktika”** tizimi yo’lga qo’yilib, buning doirasida huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo’lgan **352 668 nafar** fuqarolarda mavjud muammolar **“mahalla ettiligi”** tomonidan hal etilishi ta’minlandi.

Natijada, 2023 yil yakuni bilan respublikadagi **9 442 ta** mahalladan **2 972 tasida** (31,5 %) birona ham jinoyat sodir etilishiga yo’l qo’yilmadi.

Shuningdek, kriminogen jihatidan “qizil” toifaga kirgan mahallalar soni **756 taga** yoki **25 foizga** (*3 054 tadan 2 298 taga*) kamaydi.

Shu bilan birga, Davlat rahbari tomonidan o'tkazilgan IIV Hay'ati majlisida berilgan topshiriqlar asosida respublikada quyidagi bir qator **yangi ish amaliyotlari** joriy etildi:

– uyushmagan yoshlarni aniqlab, ular bilan profilaktika inspektori va yoshlar etakchisi tomonidan suhbatlashib, mavjud muammolarini sektor rahbari tomonidan hal etish ishlari yo'lga qo'yildi.

Buning doirasida respublika bo'yicha **28 745 nafar**, shundan, o'quv mashg'ulotlariga bormayotgan **1 942 nafar**, profilaktik hisobda turgan **7 040 nafar**, probatsiya nazoratidagi **4 798 nafar**, ilgari sudlangan **1 179 nafar**, qimorga berilgan **1 135 nafar**, yot g'oyalar ta'siriga tushgan **1 130 nafar**, ajrim yoqasiga kelgan **3 420 nafar**, giyohvand **527 nafar**, ichkilikka berilgan **1 174 nafar**, agressiv xulq-atvordagi **6 400 nafar** yoshlar manzilli profilaktik ishlar bilan qamrab olindi;

*Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 13 sentyabrdagi 468-son “Uyushmagan yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini yagona yondashuv asosida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.*

– salbiy xulq-atvor aniqlangan voyaga etmagan bolalarning ijtimoiy muammolarini hal etish uchun ularni huquq-tartibot idoralari va sektor rahbarlari tomonidan xuddi “qizil” toifadagi yoshlar kabi “otaliqqa” olish tartibi joriy etildi.

Mazkur tizim bilan **153 439 nafar** jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan voyaga etmagan bolalar qamrab olindi;

*IIV, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Milliy gvardiyaning 2023 yil 25 avgustdagi 45G'34qqG'25-son “Voyaga etmaganlar bilan ijtimoiy- huquqiy ishlash klasteri” tizimini joriy etish tartibini tasdiqlash to'g'risida”gi qo'shma qarori qabul qilindi.*

– notinch oilalarda mavjud muammolarni mahalla raislari va sektor rahbarlari tomonidan “mahallabay” bartaraf etish ishlari boshlanib, **117 882 ta** sudlarda nizolashayotgan oilalarning muammolari hal etildi.

*IIV, Oliy sud, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023 yil 22 sentyabrdagi 53qqG'23G'20-son “Xavfsiz oila” tamoyili asosida alohida ish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida”gi qo'shma qarori qabul qilindi.*

Shuningdek, Ichki ishlar vaziriga biriktirilgan **Qo'qon shahrida** ham kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralari ko'rilmogda.

Bu borada:

– **11 ta** yo'nalish bo'yicha ishchi guruhlar tuzilib, **78 ta** mahallada (*22 tasi “qizil” va 50 tasi “sariq”*) kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish ishlari yo'lga qo'yildi;

– **10 931 nafar** alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxati shakllantirildi va “ijtimoiy profilaktika” doirasida **6 737 nafar** shaxslarning muammolari hal etildi;

– kam ta'minlangan va ijtimoiy yordamga muhtoj **5 735 ta** oilalar o'rganilib, ulardan kelib tushgan **4 064 ta** murojaatlarning **3 993 tasi** hal etilishi ta'minlandi, **57 tasi** ijro uchun sektor rahbarlariga topshirildi;

– mahallalarda **299 ta** ko'p qavatli uylarning erto'la, tom qismi va kommunikatsiya tizimi ta'mirlanib, **184 ta** elektr, **174 ta** tabiiy gaz, **396 ta** oqova va **386 ta** ichimlik suvi tarmog'idagi nosozliklar bartaraf etildi;

– **240 ta** jinoiy va **307 ta** ma'muriy holat aniqlandi, **55 nafar** qidiruvda bo'lgan shaxslar qo'lga olindi, **6 nafar** bedarak yo'qolgan shaxslar aniqlanib topildi, **77 ta** jinoyatlar fosh etildi;

– **168 ta** giyohvandlik, **21 ta** qo'shmachilik, **8 ta** er savdosi, **11 ta** terrorizm, **3 ta** talon-taroj, **4 ta** poraxo'rlik, **3 ta** tovlamachilik, **67 ta** diniy material tarqatish bilan bog'liq jinoyatlar aniqlandi;

– **9,3 kg** “marixuana”, **2,3 kg** “ko'knor”, **3,8 kg** “gashish”, **1,3 kg** “opiy”, giyohvandlik vositalari, **10 027 dona** psixotrop dorilar, **10 ta** pnevmatik qurol, **18 ta** bita, **64 ta** o'tkir tig'li buyumlar olindi;

– jamoat joylarida **6 573 ta** ma'muriy huquqbuzarliklar aniqlandi, **1 418 dona** o'tkir tig'li buyumlar olib qo'yildi;

– yo'llarga **514 ta** yo'l belgisi o'rnatildi, **1 437 ta** yo'l belgisi yangisiga almashtirildi, **84 ta** svetofor ta'mirlandi, **433 dona** piyodalar o'tish joylari chizildi, **71,1 km** velosiped yo'lagi tashkil qilindi.

Qo'qon shahrida xavfsizlikni kuchaytirilgan tarzda ta'minlash ishlari davom ettirilmoqda.

#### ***V. Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar***

**4.1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 30 iyun kuni **Nukus shahriga** amalga oshirgan tashrifi davomida “**Altin jag'o's**” mahallasining namunasi asosida “mahalla etiligi” tomonidan huquqbuzarlik sodir etishi yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha “**ijtimoiy profilaktika**” tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berilgan edi.

Mazkur tizim doirasida **profilaktika inspektori** tomonidan uyma-uy yurish orqali aniqlangan har bir toifadagi shaxs bo'yicha **xulosa tuziladi**.

Tuzilgan xulosa asosida **mavjud muammolarni hal etish** uchun **fuqarolar** mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli yoki yoshlar etakchisiga **biriktiriladi**. Muammo hal etilmagunicha xulosa amal qiladi.

*Prezidentning 2023 yil 25 dekabrda PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga asosan:*

– Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida **5 ta** shtat birligidan iborat bo'lgan “Mahalla etiligi” faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limini tashkil etildi.

– hokim yordamchisi **18 ta**, xotin-qizlar faoli **27 ta**, yoshlar etakchisi **19 ta** turdagi **ijtimoiy yordam va subsidiyalar** ajratadi.

Mazkur tizim asosida xonadonlar, oilalar va profilaktik hisobdagi shaxslar o'rganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan **516 245 nafar** shaxslar aniqlanib, ular bo'yicha **xulosalar** tuzildi.

*Mahalla raislariga 159 394 ta, hokim yordamchilariga 117 843 ta, xotin-qizlar faollariga 138 012 ta va yoshlar etakchilariga 100 996 ta xulosalar berildi.*

Tuzilgan xulosalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida **352 668 nafar** shaxslarning muammolari ijobiy hal etildi.

Xususan:

– **mahalla raislari** tomonidan **18 402 nafar** shaxsning nizolariga barham berildi, **30 156 nafar** shaxslar ishga joylashtirildi;

– **hokim yordamchilari** tomonidan **9 059 nafar** shaxsga subsidiya olishda yordam ko'rsatildi, **4 739 nafari** hunarmadchilikka jalb qilindi, **5 774 nafari** kasbga o'qitildi, **11 087 nafari** tadbirkorlikka jalb qilindi;

– **xotin-qizlar faollari** tomonidan **12 116 nafar** xotin-qizga tibbiy, **16 504 nafariga** psixologik, **8 035 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

– **yoshlar etakchilari** tomonidan **2 622 nafar** yoshlarning kontrakt pullari va **2 042 nafariga** harbiy xizmat to'lovlari to'lab berildi, **2 303 nafariga** haydovchilik guvohnomasi, **6 440 nafariga** bir martalik moddiy yordam va **13 084 nafariga** dehqonchilik uchun er olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

**4.2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar asosida **yoshlarni 3 ta toifaga** ajratgan holda ular bilan individual ishlash bo'yicha **yangi tizim** amaliyotga tatbiq etildi.

Xususan, **21 053 nafar** muammosi mavjud "qizil" toifadagi yoshlar barcha darajadagi ichki ishlar organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlariga biriktirildi.

*Prezident Administratsiyasining 2023 yil 7 fevraldagi topshirig'iga asosan 9 021 738 nafar yoshlarning 4 146 063 nafari "yashil", 4 875 675 nafari "sariq", 395 768 nafari "qizil" toifaga ajratildi.*

*"Qizil" toifadagi yoshlar respublika va hududlar darajasidagi idora va tashkilot rahbarlariga nomma-nom biriktirildi.*

Mazkur toifadagi yoshlarning **5 256 nafari** mehnat migratsiyasidan qaytgan, **1 105 nafari** surunkali kasal, **6 855 nafari** nogiron, **434 nafari** ajrim yoqasidagi, **539 nafari** esa notinch oilalardagi farzandlari, **231 nafari** etim yoshlar tashkil etgan.

Shuningdek, ularning **2 134 nafari** probatsiya nazorati, **3 061 nafari** profilaktik hisob, **546 nafari** dars qoldiruvchi, **535 nafari** yot g'oyalar ta'siriga tushgan, **131 nafari** giyohvandlikka muhtalo bo'lgan yoshlardir.

Yoshlar bilan **22 001 marotaba** uchrashuvlar o'tkazildi va ularda aniqlangan **25 672 ta** muammolar hal etilishi ta'minlandi.

Jumladan, **2 183** nafari ishga joylashtirildi, **868** nafari kasb-hunarga o'qitildi, **173** nafari muddatli harbiy xizmatga jo'natildi, **668** nafari probatsiya nazoratidan, **2 187** nafari profilaktik hisobdan chiqarildi, **6 122** nafariga tibbiy, **77** nafari turar joyi ijarasi, **483** nafariga kredit olish, **757** nafariga er ajratish, **12 154** nafariga boshqa yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, **mahallalarda yoshlar va voyaga etmaganlar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari ko'rildi:

– **voyaga etmaganlar** orasida nazoratsizlikning oldini olish maqsadida

jamoat joylarida qarovsiz qolgan **112 750 nafar** bola aniqlanib, ularning **11 784 nafari** ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga, **204 nafari** o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirildi, ota-ona qaramog'isiz qolgan **339 nafariga** vasiy va homiylar tayinlandi;

– farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarning **502 nafari** ishga joylashtirildi, **1 347 nafariga** moddiy yordam ko'rsatildi;

– **talabalar** orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida, **210 ta** oliy ta'lim muassasasida **166 nafardan** ziyod profilaktika inspektorining (*shundan 25 nafari xotin-qizlar masalalari bo'yicha*) faoliyati yo'lga qo'yildi;

– **156 ta** oliygohda **312 ta** “Qalqon” guruhlarini tashkil etilib, ularga **2 332 nafar** talaba jamoatchilik asosida jalb etildi;

– “**Xavfsiz ta'lim muassasasi**” tamoyili asosida inspektor- psixologlar tomonidan **84 767 nafar** tarbiyasi og'ir bolalar bilan **398 381 marotaba** profilaktik ishlar olib borildi, ularning xonadonlariga **103 309 marotaba** borilib, farzandining tarbiyasiga e'tiborsizlik qilgan **98 793 nafar** ota-onalarga ma'muriy choralar ko'rildi;

– voyaga etmaganlarning **6 269 nafari** o'qishga qaytarildi, **7 881 nafari** sport, **6 199 nafari** fakultativ to'garaklarga, **1 126 nafari** kichik biznes shoxobchalariga jalb etildi va **2 107 nafari** “Barkamol avlod” markazlariga joylashtirildi;

– hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan buyumlarni olib yurgan **4 818 nafar** voyaga etmaganlar aniqlanib, ulardan **1 222** dona pichoq, **88** dona bita, **1 120** dona kastet, syuriken va kistenlar hamda **346** dona boshqa hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan buyumlar olindi.

**4.3. Xotin-qizlar** o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi:

– ijtimoiy ko'makka muhtoj ayollarning **6 634 nafari** ishga joylashtirildi, **2 291 nafariga** tibbiy yordam ko'rsatilib, **8 473 nafariga** moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatildi;

– tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan **40 055 nafar** xotin-qizlarga “himoya orderi” berilishi natijasida **17 327 ta** oilalar yarashdirilib, **20 876 ta** nizolar bartaraf etildi;

– og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan oilaviy muammolar va turmushida zo'ravonlik ishlatilishiga duch kelgan **1 450 nafar** xotin-qizlar Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga joylashtirildi;

– ijtimoiy muammolari hal etilishi natijasida sog'lom turmush tarziga o'tgan **26 100 nafar**, shu jumladan **647 nafar** voyaga etmagan qizlar, **5 076 nafar** yosh xotin-qizlar, **384 nafar** ilgari sudlangan ayollar ichki ishlar organlari hisobidan chiqarildi;

– og'ir vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga tezkorlik bilan zaruriy yordam ko'rsatish uchun tizimda qisqa “1259” va “1286” raqamli “**Ishonch markazi**” tashkil etilib, markazga qo'ng'iroq qilgan **9 297 nafar** ayollarga **psixologik va huquqiy yordam** ko'rsatildi.

## ***VI. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari***

2023 yilning 12 oyi mobaynida respublika hududida jinoyatchilikni jilovlash, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash borasida **kompleks chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

### **5.1. Tezkor-qidiruv faoliyatini jadallashtirish yo'nalishida:**

2023 yilda xodimlarning tashabbusi bilan **41 339 ta** jinoyat aniqlangan bo'lib, mazkur amaliyot **6,5 foizga** (2022 yil 12 oyida – 38 810 ta) yaxshilangan.

Xususan:

– **588 ta** “hujra”, **122 ta** noqonuniy nomozxona, **89 ta** noqonuniy diniy jamoat hamda **807 ta** internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yot g'oyalarni tarqatish holatlariga barham berilgan va noqonuniy muomaladan **10 tn 306 kg**dan ziyod giyohvandlik vositalari va psixotrop dori-vositalari olingan;

– qoidaga zid ravishda saqlangan **3 222 dona** o'qotar ov quroli, **2 182** dona pnevmatik qurol va jamoat joylarida olib yurilgan **1 040** dona sovuq qurol olib qo'yilgan.

Shuningdek, respublikada sodir etilgan jami jinoyatlarning **91 322 tasi** yoki **87,2 foizi** fosh etildi, tergov organlaridan yashiringan **7 563 nafar** shaxslar ushlandi, **450 nafar** bedarak yo'qolganlar topilib, **14 ta** shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi;

– **3 316 nafar** shaxslar tomonidan sodir etilgan **2 840 ta** korrupsiya va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar aniqlanib, ular oqibatida etkazilgan **249 mlrd 548 mln so'm** miqdoridagi zarar undirilishi ta'minlandi;

– **113 ta** chegara qoidalarini buzish hamda **189 nafar** odam savdosi jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlandi.

### **5.2. Kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari va jinoyatchilik holati:**

2023 yilda respublikada **har 100** ming aholiga **289 ta** jinoyat to'g'ri kelib, Toshkent shahri (735 ta), Toshkent (415 ta), Sirdaryo (377 ta), Farg'ona (327 ta) va Navoiy (296 ta) viloyatlarida salmog'i yuqoriligi qayd etilgan.

*100 ming aholiga Rossiyada – 1 004, Armanistonda – 913, Belarusda – 686, Moldaviyada – 509, Qozog'istonda – 472 ta jinoyat to'g'ri keladi.*

Jami mahallalarning **31,5 foizida** (2 972 ta) jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan, o'z navbatida jinoyatlar qayd etilgan mahallalarning **2 298 tasida** (24,3 %) kriminogen vaziyat nisbatan murakkab hisoblanadi.

Respublikada jami **62 757 ta** oldini olish lozim bo'lgan jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, jinoyatlarning asosiy salmog'i yoki **52,4 foizini** o'g'rilik (*14 444 ta*) va firibgarlik (*18 492 ta*) tashkil etgan.

O'g'riliklarning **16,8 foizi** xonadonlarda, **9,4 foizi** savdo shohobchalarida, **5,4 foizi** avtotransport vositalaridan sodir etilgan, **14,4 foizini** telefon, **4,8 foizini** velosiped, **5,6 foizini** hayvon o'g'riliklari **2,7 foizini** kissavurlik, **19,3 foizini** axborot texnologiyalar yordamida tashkil etadi.

Firibgarliklarning **6,7 foizi** o'qishga va ishga kiritish, **8,2 foizi** avtomashina, **10,1 foizi** uy-joy, **5,5 foizi** kredit, **4,7 foizi** chorva mol olib berish, **9,3 foizi** qarz oldi-berdi bilan bog'liq holda sodir etilgan.

O'g'rilik jinoyatlarini asosan **30 yoshgacha** muayyan kasbga ega bo'lmagan **4 397 nafar** (*29,6 %*) shaxslar sodir etgan hamda firibgarlik jinoyatiga esa asosan **6 126 nafar** (*33,1 %*) yoshlar jinoyatga qo'l urgan.

Oldi olinishi lozim bo'lgan jinoyatlarning **1 213 tasini** o'zaro nizolar va kelishmovchilik sababli sodir etilgan qotillik va tan jarohati etkazishlar tashkil etgan.

Mazkur jinoyatlarning **902 tasi** oilalarda, **41 tasi** jamoat joylarida, **246 tasi** ijtimoiy ob'ektlar hududida sodir etilgan.

Band bo'lmaslik yoki daromad topmaslik oqibatida **69,5 foiz** (*11 902 ta*) jinoyatlar sodir etilib, asosan **Toshkent shahri** (*5 076 ta*), **Toshkent** (*1 455 ta*), **Andijon** (*942 ta*) va **Surxondaryo** (*801 ta*) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Kiberxavfsizlik yo'nalishida** **6 455 ta** jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ularning **76 foizi** (*4 923 ta*) fuqarolarning **bank plastik kartalaridagi** pullarni qo'lga kiritish bilan bog'liqdir.

**Elektron to'lov tizimlari** orqali sodir etilgan jinoyatlarning **53 foizi** (*2619 tasi*) **soxta havolalar** yuborish orqali tasdiqlovchi kodni qo'lga kiritib, karta boshqaruvini egallash yo'li bilan, **15 foizi** (*734 tasi*) **onlayn savdo platformalarida** turli aldoqlar bilan tovarlar uchun to'lovni oldindan amalga oshirishga erishish orqali, **13,2 foizi** (*651 tasi*) **telefon qo'ng'iroqlari** orqali bank karta boshqaruvini tasdiqlovchi kodni qo'lga kiritish yo'li bilan sodir etilgan.

*Shuningdek, 11,8 foizi (577 tasi) shaxslarni soxta kripto-birjalarga qiziqtirish va pul o'tkazishga erishish orqali, 1,4 foizi (68 tasi) xorijdan pul yuborishni va'da qilib, pochta xarajatlariga to'lov sifatida pul o'tkazdirish orqali sodir etilgan.*

Internet tarmog'ida noqonuniy ravishda **onlayn qimor** va **tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni** o'tkazib, fuqarolarning pul mablag'larini jalb etib kelayotgan **420 ta** internet resurslari aniqlanib, bloklandi hamda ularni sodir etgan **95 nafar** shaxslar ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortildi.

**Kibertovlamachilik** qilib kelgan **421 ta** internet resurslarning faoliyati aniqlanib, barchasi bloklandi hamda **15 nafar** shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, **54 nafar** shaxs rasmiy ogohlantirildi.

Aholini kibertahdidlardan ogohlantirish bo'yicha "Cyber-Week" va "Cyber 10 day" nomlari ostida jami **46 047 ta** kompleks targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilib, **17 mln 903 ming** aholi qamrab olindi.

*Mahallalarda 15 102 ta, maktablarda 12 134 ta, oliy ta'lim muassasalarida 1 593 ta, korxonalarda 7 201 ta hamda savdo komplekslarida 2701 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan.*

*Qamrab olingan aholining 7 mln 206 ming nafari hududlarda olib borilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlari davomida, 10 mln 697 ming nafari esa ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibot kanallari orqali tegishli ma'lumotlar bilan tanishdi.*

Kiberjinoyatlardan himoyalaniish usullarini tushuntiruvchi **35 087 ta** videokontent, **429 216 ta** tarqatma material va **12 909 ta** bannerlar tayyorlandi, ommaviy axborot vositalarida **13 633 marotaba** chiqishlar qilindi.

Ichki ishlar vazirligining ("Youtube", "Telegram", "Instagram") ijtimoiy tarmoqlardagi "cyber 102 | IIV Kiberxavfsizlik markazi" targ'ibot kanallari orqali **400 mingdan** ortiq obunachiga **39 176 ta** tashviqot materiallari havola etildi.

### ***VII. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish tadbirlari***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar asosida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida islohotlarning **yangi bosqichi** boshlandi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Administratsiyasi (AF-9-son) farmoyishi** asosida **Respublika ishchi guruhi** tashkil etilib, sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida kiritilgan loyihalar asosida O'zbekiston Respublikasining **1 ta** qonuni, Prezidentning **5 ta** qarori hamda Vazirlar Mahkamasining **15 ta** qarori qabul qilindi.

*Bundan tashqari, 2 ta Qonun loyihasi, 6 ta Hukumat qarori loyihalari, Vazirlar Mahkamasida yana 6 ta qaror loyihasi vazirlik va idoralarda ko'rib chiqilmoqda.*

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash, harakatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida **Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash respublika maxsus komissiyasi**, hokimlar rahbarligida esa **hududiy maxsus komissiyalar** tuzilib, ularning **tarkibi** va **nizomi** tasdiqlandi.

Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "**Xavfsiz va ravon yo'l**" umummilliy dasturi tasdiqlandi;

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 iyuldagi PQ-316-son "2022–2026 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan «Xavfsiz va ravon yo'l» umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

Unda **840 baddan** iborat **5 yilga** mo'ljallangan (2022-2026 yillar) "**Xavfsiz va ravon yo'l**" umummilliy dasturida viloyat kesimida, yilma-yil ajratilgan va mas'ul ijrochilar ko'rsatgan holda **5 ta** yo'nalish bo'yicha aniq parametrlar bilan manzilli chora-tadbirlar belgilandi.

Shuning uchun ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari hokimliklar tasarrufidan hududiy Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalariga o'tkazildi va ularning zimmasiga Nukus va Toshkent shaharlari, viloyatlar, tuman(*shahar*)lar markazlarida yo'l belgilari, ko'rsatkichlari va svetoforlarni o'rnatish, yo'l chiziqlarini chizish vazifalari yuklatildi.

**Ekspluatatsiya-montaj** bo'linmalari tomonidan 2023 yilda **19 424** ta yo'l belgilari o'rnatildi, **25 000** ta eskirgan yo'l belgilari almashtirildi, **8,8** kilometr<sup>2</sup> hajmda yo'l yotiq chiziqlari chizildi, **533** ta svetofor qurilmalari o'rnatildi, **1,5 mingta** joyda piyodalar o'tish joylari tashkil etildi, xavfli yo'l uchastkalarida **74** ta foto-video qayd **etish** moslamalari o'rnatildi.

Shuningdek, **1 578 ta** maktabda yo'l harakati qoidalarini o'rgatish sinfxonalari jihozlandi hamda **1 019 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchalari tashkil etildi.

Misol uchun, Yunusobod tumanida joylashgan 288-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida "Yo'l harakati qoidalarini" o'qitish, "Ro'yxatlash va imtihon olish" sinf xonalari, Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tarixi muzeyi hamda "Yo'l harakati qoidalarini o'rganish" maydonchalari tashkil etildi.

*2023 yilga qadar respublikada 67 ta maktabda sinfxona, bog'chalarda 56 ta, mahallalarda 5 ta yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchalari mavjud bo'lgan.*

Umumiy va o'rta ta'lim muassasalarida **hamkorlik qilish guruhi katta inspektori** lavozimlari joriy etildi;

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi "Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 212-son qaroriga asosan:

– umumiy va o'rta ta'lim muassasalari bilan **hamkorlik qilish bo'yicha katta inspektorlari** tomonidan maktablarda "**Diqqat yo'lovchi**", "**Diqqat bolalar**", "**Yashil chiroq**", "**Yo'l harakati qoidalari bilimdoni**", "**Eng namunali yo'lovchi**" kabi kompleks targ'ibot va tashviqot tadbirlari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, maktab o'quvchilarida Yo'l harakati qoidalari bo'yicha dastlabki ko'niklarini shakllantirish, bolalar ishtirokidagi yo'l-transport transport hodisalarning oldini olish yuzasidan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida respublika bo'yicha **barcha maktablarga** Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari **o'z xizmat hududi bo'yicha biriktirilib**, maktab o'quvchilari bilan ishlashi yo'lga qo'yildi.

Ta'lim muassasalarida ko'ngilli yoshlar ishtirokida yo'l harakati qoidalarini faol targ'ib qiluvchi "**Yo'l harakati qoidalari yosh targ'ibotchisi**" klubi tashkil etildi.

Respublikadagi **15 ta** ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgani "**Nurli maskan**" maktab-internatlarda **Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maxsus maydonchalari** tashkil etildi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar ta'lim olayotgan, mehnat qilayotgan hamda yashash hududlarida ovozli svetoforlar va hasa bilan yurish uchun moslashtirilgan alohida yo'laklar tashkil etildi.

Misol uchun, Toshkent shahri, Andijon, Buxoro, Qoraqalpog'iston, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Namangan, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlaridagi "**Nurli maskan**" oldiga hamda Nurafshon shahridagi "Ko'zi ojizlar jamiyati" binosi oldiga **ovoz chiqaruvchi svetofor qurilmalari** va **innovatsion yo'l belgilari** o'rnatilgan.

Toshkent shahri bo'yicha jamoat transporti ustuvorligini va to'siqsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida **180 km** uzunlikdagi **17 ta** alohida avtobus yo'laklari tashkil qilindi.

Bundan tashqari, poytaxt ko'chalarida aholi uchun qulay va xavfsiz sharoitlarni yaratish maqsadida, **250 ta** piyodalar tomonidan boshqariladigan svetoforlar ishga tushirildi, **1 592 ta** piyodalar o'tish joylarida yo'l belgilari yangilandi, **3 997 m<sup>2</sup>** yo'l yotiq chiziqlari chizildi.

Yo'l harakatini to'g'ri tashkil etish maqsadida **5 ta davlat standartlari** taftishdan o'tkazilib, qayta ishlab chiqildi.

2023 yilda ta'mirlanayotgan avtomobil yo'llarida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Avtomobil yo'llari qo'mitasiga **3 776 ta** va mahalliy hokimliklarga **1 338 ta** taqdimnoma kiritildi.

Qayd etish lozim, 2023 yil davomida respublikada **9 839 ta** yo'l-transport hodisasi sodir etilib, ularning **19,8 foizi** (*1 949 ta*) inson o'limi bilan yakunlangan. Bunda:

*2022 yilda jami 9 902 ta, shundan 2 086 ta (21 %) o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisasi sodir etilgan edi.*

– yo'l-transport hodisalarining **19,4 foizi** xalqaro ahamiyatga ega yo'llarda, **34 foizi** davlat ahamiyatga ega yo'llarda, **20,2 foizi** mahalliy ahamiyatga ega yo'llarda, **26,4 foizi** ichki yo'llarda sodir etilgan;

– avtoavariyalarning **47,3 foizi** haydovchilar tomonidan piyodaga yo'l bermaslik hamda **67,6 foizi** belgilangan tezlikka, **3,4 foizi** uxlab qolishi va **10,3 foizi** quvib o'tish qoidasiga amal qilmaslik oqibatida sodir bo'lgan.

2023 yilda avtoavariya oqibatida **2 282** nafar (*2022 yil 12 oyida – 2 356*) inson vafot etgan, **9 209** nafari (*9 606 nafar*) jarohatlangan.

Shuningdek, "Toshshahartransxizmat" aktsiyadorlik jamiyatida **Idoralararo tezkor shtab** faoliyati yo'lga qo'yilib, **avtobus saroylari** Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga birlashtirildi.

– "Toshshahartransxizmat"da Idoralararo tezkor shtab faoliyati yo'lga qo'yildi (**8 ta** avtosaroyda ishchi guruhlar tuzildi);

– ta’mir talab **177 dona** avtobus to’liq, **14 172 tasi** joriy ta’mir lanib, yo’nalishlarga chiqarildi;

– avtobuslar sonini ko’paytirish uchun “Samavto” zavodidan **233 dona**, Xitoydan **1 004 dona** avtobuslar olib kelindi (*302 dona elektrobust, 500 dona “Yutong” 12 m, 200 dona “King long” 18 m avtobus hamda 2 dona “King long” rusumli 18 m elektrobust*).

Natijada, avtobuslar **1 706 taga** (*92 % ko’paygan*) etkazildi;

– tirband yo’nalishlarga **615 ta** avtobus qo’shimcha jalb etildi;

– harakatlanishi oralig’i **10 daqiqaga** qisqardi, yo’lovchilar soni **73 foizga** oshdi.

### ***VIII. Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlash bo’yicha***

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-son “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo’naltirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan **Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi** tasdiqlandi.

O’z navbatida, 2023 yil davomida **91 725 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi hamda **xorijiy politsiya** tizimi ta’lim muassasalari va bo’linmalarida **119 nafar** amaliyotchi xodimlarning **malakasi oshirildi**.

Shuningdek:

– ichki ishlar organlariga **3 000 nafardan ziyod** nomzodlar yangidan xizmatga qabul qilindi, ish samaradorligini oshirish maqsadida xodimlarning istiqbolli zaxirasi yaratildi, **6 000 nafar** ziyod xodimlar attestatsiyadan o’tkazildi;

– psixolog-mutaxassislar tomonidan shaxsiy tarkib bilan **2 072 marotaba** targ’ibot-tashviqot ishlari, **28 693 marotaba** yakka tartibdagi konsultativ suhbatlar o’tkazildi;

– yuqori natijalarga erishgan **76 nafar** xodimlar davlat mukofotlari bilan va **3 720 nafar** xodimlar idoraviy mukofotlar bilan taqdirlandi;

– **188 ta holatda** xodimlarga pora berish jinoyatlari bo’yicha maxsus tadbirlar o’tkazilib, xizmat vazifasiga vijdonan yondashgan xodimlarga **541,1 mln so’m** pul mukofotlari berildi.

**O’zbekiston Respublikasi**  
**Ichki ishlar vazirligi**